

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**TALABALARNING INGLIZ TILIDA IFODALI O'QISHGA O'RGATISH  
USULLARI**

**Mo'minova Mahliyo Ahrorjonovna**

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning ingliz tilida ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Ifodali o'qishning mohiyati, uning talaffuz, intonatsiya va emotsional idrokni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, model asosida o'qitish, dialog va dramatisatsiya, audio-video materiallardan foydalanish, juftlik va guruh mashg'ulotlari kabi metodlar misolida talabalarning ifodali o'qishga o'rganish jarayoni ochib berilgan. Maqolada ifodali o'qishning o'quvchilarda til madaniyatini, ijodiy fikrlashni va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar.** ifodali o'qish, ingliz tili, talaffuz, intonatsiya, o'qitish usullari, dramatisatsiya, kommunikativ kompetensiya, audio materiallar, o'quv jarayoni, talaffuz ko'nikmalari.

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВЫРАЗИТЕЛЬНОМУ ЧТЕНИЮ  
НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Муминова Махлиё Ахроржонова**

*Базовый докторант Наманганского государственного университета*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются эффективные методы развития навыков выразительного чтения у студентов на английском языке. Анализируются сущность выразительного чтения, его роль в развитии произношения, интонации и эмоционального восприятия. Также раскрывается процесс обучения студентов выразительному чтению на примере таких методов, как обучение по моделям, диалогово-драматизационный метод, использование аудио- и видеоматериалов, парные и групповые упражнения. В статье обосновывается важность выразительного чтения в развитии языковой культуры, творческого мышления и коммуникативной компетентности студентов.

**Ключевые слова:** выразительное чтение, английский язык, произношение, интонация, методы обучения, драматизация, коммуникативная компетентность, аудиоматериалы, процесс обучения, произносительные навыки.

**METHODS OF TEACHING STUDENTS TO EXPRESSIVE READING IN  
ENGLISH**

**Muminova Mahliyo Ahrorjonovna**

*PhD student at Namangan State University*

**Abstract.** *This article discusses effective methods for developing students' expressive reading skills in English. The essence of expressive reading, its role in the development of pronunciation, intonation and emotional perception are analyzed. Also, the process of students' learning to express reading is revealed using the example of methods such as model-based teaching, dialogue and dramatization, the use of audio-video materials, pair and group exercises. The article substantiates the importance of expressive reading in developing language culture, creative thinking and communicative competence in students.*

**Keywords.** *expressive reading, English, pronunciation, intonation, teaching methods, dramatization, communicative competence, audio materials, learning process, pronunciation skills.*

Globalashuv davrida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki zamonaviy ta'lim, fan va texnologiya sohalariga kirishning muhim kaliti sifatida e'tirof etilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda ifodali o'qish (expressive reading) ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning og'zaki nutq, talaffuz, intonatsiya va emotsional idrokini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, talabalarni ingliz tilida ifodali o'qishga o'rgatish ularning tilga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va madaniy kompetensiyasini kengaytiradi.

Bugungi kunda, dunyoda ingliz tilini o'qitish metodikasi tizimida turli metodlardan foydalaniladi. O'qitishdagi har bir metodlar o'quvchi va talabalarga o'qish jarayonida yengillik yaratish maqsadida yaratiladi. Yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan o'quvchi yoshlarning Ingliz tili va boshqa chet tillarini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori «Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari yurtimizda chet tillarga o'qitishning kompleks tizimini yaratish, va uning sifatini oshirish eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda ushbu qarorlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir nechta ishlar amalga oshirilgan. Xususan, har bir oliy ta'lim muassasalarida xorijiy hamkorliklar yo'lga qo'yilgan va dars jarayonlariga xorijlik yetakchi professor-o'qituvchilar jalb qilinmoqda. Bu esa talabalarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi tabiiy.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

Ifodali o'qish — bu matnni ma'nosiga, tuzilishiga va emotsional ohangiga mos tarzda, to'g'ri talaffuz va intonatsiya bilan o'qish san'atidir. U faqat grammatik va fonetik bilimlarni emas, balki nutqning ritmi, urg'u va hissiy tusini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini ham talab qiladi. Ifodali o'qish talabalarga nafaqat tildagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, balki matn mazmunini his etib o'qishni o'rgatadi.

Talabalarining ingliz tilida ifodali o'qishga o'rgatish usullari hususida to'xtalganda ularni shartli ravishda 5 ta guruhga ajratish mumkin. bular:

1. Model asosida o'qitish. Bunda o'qituvchi namunaviy ifodali o'qishni namoyish etadi, talabalar esa uni tinglab, ohang, urg'u va talaffuzni tahlil qiladilar.

2. Dialog va drammatizatsiya. Mazkur usulda badiiy matnlar, she'rlar yoki hikoyalarni rollarga bo'lib o'qish orqali talabalar nutqdagi emotsional ifodani tabiiylashtiradilar.

3. Audio va video materiallardan foydalanish. Ingliz tili darslarida professional o'qilgan audio matnlar orqali talabalar to'g'ri talaffuz, intonatsiya va ritmni eshitib o'rganadilar.

4. Juftlik va guruhda mashqlar. Talabalar o'zaro matnlarni navbatma-navbat o'qib, birlariga baho berishadi. Bu usul o'zaro tahlil va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

5. Yozma tayyorgarlik va tahlil. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini, yangi so'zlari va grammatik tuzilmalari tahlil qilinadi, bu esa o'qish jarayonini ongli qiladi.

Ifodali o'qish talabalarining og'zaki nutqini rivojlantiradi, talaffuzdagi xatolarni kamaytiradi, tinglab tushunish ko'nikmasini mustahkamlaydi va matnga emotsional yondashishni o'rgatadi. Bundan tashqari, u talabalarda ijodiy fikrlashni, o'z fikrini erkin ifodalashni va madaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida ifodali o'qishga o'rgatish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. O'qituvchi modeli, audio materiallar, rolli o'yinlar va matn tahlili kabi usullarni uyg'unlashtirish orqali talabalarni nafaqat tovushlarni to'g'ri aytishga, balki so'z ortidagi his va ma'noni chuqur anglashga o'rgatish mumkin. Natijada, talabalarining tilga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning nutq madaniyati va ijodiy salohiyati rivojlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jo'rayev M. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. B.25
2. Karimov A. Til va tarjima madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. B.46-47
3. Qo'shjonov M. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010. B.36
4. Shomusarov S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. B.67